

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10 - SON

2025-YIL, OKTABR

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheyeva Shoira Azimovna, i.f.n., SamISI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Jumayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Allayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umiddjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 688 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI.....	45
Pulaton Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zimurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxamatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	124
Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	

TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR	163
Boboxo‘jayev Baxtiyor Nazirxo‘jayevich QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORIIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITLARI	170
Boltayev Umidjon Talant o‘g‘li UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O‘RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o‘g‘li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА	189
Aхмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	198
Isakov Axmadali Esanbaevich KORXONALAR EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI	207
Karrieva Yakutjan Karimovna СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	214
Aхмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович FRANCHAYZING VA KLASTER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o‘g‘li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich ELEKTRON TIJORATDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG‘ KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmurotov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid MINTAQADA KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO‘LLASH MASALALARI	260
Kadirov San‘at Yuldashevich AGROKLASTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH	266
O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	273
Saatova Lolakhon Ergashevna HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	281
Salayeva Lobar Ulug‘bek qizi RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA‘MINLASH OMILLARI	290
To‘rayev Sardorbek To‘rayevich MINTAQA IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	297
Turayev Og‘abek Kaxramonovich TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI	312
Masharipova Shahlo Adambaevna EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEKANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	320
To‘rayeva Yulduz Shamsiddin qizi KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo‘jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	

OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI.....	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI.....	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR.....	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BRENDYUK" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI.....	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS.....	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ НА ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК КАРАКАЛПАКСТАНА.....	457
Хошимова Камилла Навфал кизи	
ISHLAB CHIQRARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	
TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE).....	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА.....	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА).....	518
Кайыбеков Парахат Коньсабаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O‘ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA‘MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o‘g‘li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH.....	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO‘CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ixom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА.....	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLIYAVIY YORDAM KO‘PAYTIRISH.....	625
Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI.....	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	
FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBERXAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (“My Card” mobil ilovasi misolida).....	661
Azlarova Aziza Axrorovna, Axmedova Nilufar Shuxratovna	
SANOAT KLASTERLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI VA KO‘RSATKICHLAR TIZIMI	670
Zaxidov G‘afurjon Erkinovich	
HUDUDLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHDA FISKAL SIYOSAT VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARI.....	677
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	

HUDUDLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHDA FISKAL SIYOSAT VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich

“Alfraganus University” rektori

PhD, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirishda fiskal siyosat vositalaridan foydalanish mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotda fiskal federalizm nazariyalari, tenglashtiruvchi transferlar tizimi va hududiy byudjetlar samaradorligi ilmiy asosda o‘rganildi. Andijon viloyati misolida hududlar kesimida aholi jon boshiga investitsiyalar dinamikasi baholandi hamda investitsion notekislik omillari aniqlandi. Tadqiqot natijalarida QQS tushumlarini hududiy taqsimlash, tenglashtiruvchi transferlar formulasini takomillashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hududiy konvergensiyaning kuchaytirishi asoslandi. Shuningdek, fiskal shaffoflikni oshirish va mahalliy byudjetlar samaradorligini monitoring qilishning iqtisodiy ahamiyati yoritildi. Tadqiqot asosida hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: fiskal siyosat, hududiy rivojlanish, fiskal federalizm, tenglashtiruvchi transferlar, mahalliy byudjet, investitsiya, hududiy konvergensiya, iqtisodiy tafovut, byudjet islohoti, davlat-xususiy sheriklik.

Аннотация

В данной статье был проведён анализ механизмов использования инструментов фискальной политики для сокращения различий в экономическом развитии регионов Республики Узбекистан. В исследовании на научной основе были рассмотрены теории фискального федерализма, система выравнивающих трансфертов и эффективность региональных бюджетов. На примере Андижанской области была оценена динамика инвестиций в основной капитал на душу населения и выявлены факторы инвестиционной неравномерности. Результаты исследования показали, что распределение поступлений НДС между регионами, совершенствование формулы выравнивающих трансфертов и развитие механизмов государственно-частного партнёрства способствовали усилению региональной конвергенции. Также было раскрыто экономическое значение повышения фискальной прозрачности и мониторинга эффективности местных бюджетов. На основе исследования были разработаны практические рекомендации по укреплению региональной экономической устойчивости.

Ключевые слова: фискальная политика, региональное развитие, фискальный федерализм, выравнивающие трансферты, местный бюджет, инвестиции, региональная конвергенция, экономические различия, бюджетная реформа, государственно-частное партнёрство.

Abstract

This article analyzed the mechanisms for the effective use of fiscal policy instruments in reducing disparities in regional economic development in the Republic of Uzbekistan. The study examined the theories of fiscal federalism, equalization transfer systems, and the efficiency of regional budgets on a scientific basis. Using Andijan region as a case study, the dynamics of per capita investment in fixed capital and the factors causing investment inequality were evaluated. The research findings demonstrated that the territorial distribution of VAT revenues, improvement of equalization transfer formulas, and development of public-private partnership mechanisms strengthened regional convergence. The study also highlighted the economic importance of increasing fiscal transparency and monitoring the efficiency of local budgets. Based on the obtained results, practical recommendations aimed at strengthening regional economic stability and improving fiscal management mechanisms were developed.

Keywords: fiscal policy, regional development, fiscal federalism, equalization transfers, local budget, investment, regional convergence, economic disparity, budget reform, public-private partnership.

KIRISH

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlar mamlakat miqyosidagi inklyuziv o'sish, mehnat va kapital resurslarining samarali joylashtirilishi hamda ijtimoiy birdamlik darajasini belgilab beradigan asosiy omillar qatoriga kiradi. Xalqaro tajriba mamlakat ichidagi mintaqaviy farqlarning kamayishi nafaqat aholi turmush sifatining tenglashishiga, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari hisoblangan jami ishlab chiqarish unumdorligi va inson kapitali rivojlanishiga ham bevosita aks etishini ko'rsatib bermoqda [10].

O'zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar natijasida barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda real yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 2023-yilda 6,3 foizni, 2024-yilda 6,7 foizni va 2025-yilda 7,7 foizni tashkil etdi, kambag'allik darajasi esa 2024-yildagi 8,9 foizdan 2025 yilda 5,8 foizgacha qisqartirildi [10]. Shu davr ichida xalqaro zaxiralar 2026-yil yanvariga kelib 70 milliard AQSh dollariga yetdi va Jini koeffitsiyenti 32,7 darajasiga tushirildi [10]. Bunday makroiqtisodiy yutuqlar fiskal siyosatning o'rta muddatli barqarorlashtiruvchi rolini va islohotlarning izchilligini namoyon etdi.

Shu bilan birgalikda mamlakat hududlari kesimida iqtisodiy salohiyat va investitsiya jozibadorligi bo'yicha sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda. Suv ta'minoti sohasidagi xizmatlarning shahar va qishloq joylari kesimidagi qamrovi 2024-yilda mos ravishda 89 foiz va 71 foizni tashkil etdi, bu esa hududiy infratuzilma to'laligidagi taqsimotning notekisligini ifodalaydi [22]. Bu kabi farqlarni qisqartirish O'zbekiston-2030 strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar tarkibiga kiritilgan [14].

Fiskal siyosat hududiy konvergensiyaning eng kuchli vositalaridan biri sifatida tan olinadi. U bir tomondan markazlashtirilgan soliq tushumlarini qayta taqsimlash orqali fiskal salohiyati cheklangan hududlarni qo'llab-quvvatlash imkonini bersa,

ikkinchi tomondan investitsion ragʻbatlar va maqsadli xarajatlar tizimi orqali mahalliy iqtisodiyotning ichki oʻsish manbalarini faollashtiradi [3]. OECD mamlakatlarida tenglashtiruvchi transferlar oʻrtacha YaIMning 2,5 foizini yoki davlat xarajatlarning 5 foizini qoplaydi va mintaqaviy fiskal tafovutlarning taxminan uchdan ikki qismini bartaraf etadi [4].

Tadqiqotning maqsadi - Oʻzbekiston Respublikasida hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqlarini qisqartirishda fiskal siyosat vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha nazariy asoslangan va amaliy yoʻnaltirilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqola tarkibi mavzuning xalqaro nazariy meroski qisqacha bayoniga, qoʻllanilgan metodologiyaning izohiga, Andijon viloyati misolida oʻtkazilgan miqdoriy tahlilga, hamda 2026 yilgi byudjet islohotlari sharoitida amaliy takliflarga oid yakuniy boʻlimga boʻlib taqsimlangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal federalizmning birinchi avlod nazariyasi Charlz Tibuning 1956-yilda nashr etilgan klassik maqolasi bilan boshlangan. Unda mahalliy davlat tovarlarini taqdim etishda isteʼmolchilarning «oyoqlari bilan ovoz berish» qobiliyati orqali samarali joylashishga erishish modeli ilgari surilgan [1]. Uolles Oats keyinchalik bu gʻoyani rivojlantirib, mahalliy hokimiyatlarning aholining xilma-xil afzalliklariga moslashtirilgan davlat xizmatlarini taqdim etishda nisbiy ustunligi mavjudligini asoslab berdi va detsentralizatsiya teoremasini ilmiy muomalaga kiritdi [2].

Ikkinchi avlod fiskal federalizm konsepsiyasi mahalliy hokimiyatlarning ragʻbatlarini, axborot asimmetriyasini va siyosiy iqtisodiyot omillarini tahlil markaziga qoʻydi. Oats 2005-yilgi tadqiqotida byudjet cheklovlarining qattiqligi, transferlar samaradorligini saqlash va detsentralizatsiyaning rivojlanish bilan korrelyatsiyasi masalalariga eʼtibor qaratdi [2]. Bu yondashuv keyingi yillarda hududiy konvergensiyaning empirik tadqiqotlari uchun nazariy asos boʻlib xizmat qildi.

Tenglashtiruvchi transferlar tizimi nazariyasini yaxlitlashtirish boʻyicha eng salmoqli hissa Robin Boadway va Anvar Shoh tomonidan kiritilgan «Hukumatlararo fiskal transferlar: tamoyillar va amaliyot» risolasida bayon qilindi. Mualliflar transferlarning maqsadi shaffof boʻlishi, formulalarning prognozlanuvchanlikni taʼminlashi va mahalliy fiskal saʼy-harakatlarni cheklamasligi kerakligini taʼkidlashdi [3]. OECDning Hansyörg Blöxliger rahbarligida oʻtkazilgan keng qamrovli tahlili tenglashtiruvchi transferlar barcha mamlakatlarda mintaqaviy konvergensiya bir xil taʼsir koʻrsatmasligini, ularning samaradorligi formula tuzilishi va makroiqtisodiy kontekstga bogʻliq ekanligini empirik ravishda namoyon etdi [4].

Yevropa Markaziy banki tomonidan 2020-yilda nashr etilgan maxsus tadqiqot fiskal transferlarning iqtisodiy konvergensiya taʼsiri muammosini yangi bosqichga koʻchirdi. Tahlilda umumiy maqsadli transferlarning «yopishqoq qogʻoz effekti» borligi va olingan mablagʻlar avtomatik ravishda olgan hududning ishlab chiqarish salohiyatiga aylantirilmasligi aniqlangan [7]. Bunday natija fiskal vositalarning samaradorligi ularning maqsadli yoʻnaltirilganligi va ijro mexanizmlarining mustahkamligiga bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi.

OECDning 2025-yilgi yangilangan tadqiqotida fiskal konsolidatsiya sharoitida tenglashtiruvchi transferlarning tarkibiy o'zgarishi tahlil qilindi. Tadqiqotchilar mahalliy daromad to'plash sa'y-harakatlarini va xarajatlarni nazorat qilishni rag'batlantiradigan formulalar konsolidatsiyani byudjet intizomi bilan birlashtirishga imkon berishini asosli dalillar bilan tasdiqlashdi [5]. OECDning oldingi tahlilida ham ko'rsatilganidek, kuchli tenglashtirish darajasi qo'shimcha soliq daromadining 70 foizigacha bo'lgan ulushini transferlar fondiga yo'naltirishni talab qilishi mumkin [6].

Vu va Le tomonidan o'tkazilgan ko'p mamlakatli empirik tadqiqotda fiskal detsentralizatsiyaning iqtisodiy o'sish va inson kapitali rivojlanishiga ijobiy ta'siri ko'rsatib berildi va bu samaradorlik institutsional sifat bilan shartlangan ekanligi vujudga keltirildi [21]. O'zbekiston tajribasiga oid mahalliy ilmiy adabiyotlarda Sharipov 2026-yil byudjet islohotlari paketini mahalliy daromadlarni ko'paytirish va qattiq byudjet cheklovlarini birlashtiruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qildi va 2019-2026 yillarda mahalliy byudjet daromadlari 31,1 trillion so'mdan 76,0 trillion so'mga o'sganini, vertikal fiskal tafovut esa 19,6 trillion so'm atrofida saqlanib qolganini empirik dalillar bilan asosladi [20].

O'zbekiston Respublikasida fiskal siyosatning huquqiy asosi Byudjet kodeksi bilan tartibga solinadi. Kodeksning 138-moddasi va 142-moddalari tenglashtiruvchi byudjetlararo transferlarning shakllanish va taqsimlash tartibini, hududiy byudjetlarga qo'llaniladigan cheklovlarni belgilaydi [13]. O'zbekiston-2030 strategiyasi 100 ta maqsadni o'z ichiga olgan beshta ustuvor yo'nalish doirasida hududlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash vazifasini ilgari surdi [14]. 2026 yilga mo'ljallangan davlat byudjeti to'g'risidagi qonun esa fiskal vositalarni mintaqaviy ehtiyojlarga moslashtirishning yangi bosqichini ifodaladi [15].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirishda fiskal siyosat vositalarining samaradorligini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini fiskal federalizm, hududiy konvergensiya va byudjetlararo munosabatlarga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tahlil jarayonida iqtisodiy-statistik, qiyosiy, tizimli va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Andijon viloyati misolida aholi jon boshiga investitsiyalar ko'rsatkichlari hududlar kesimida solishtirilib, investitsion tafovutlarning o'zgarish tendensiyalari baholandi. Shuningdek, tenglashtiruvchi transferlar, QQS tushumlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining hududiy iqtisodiyotga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi. Olingan natijalar asosida fiskal siyosat vositalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining tarkibiy o'ziga xosligi shundaki, davlat moliyasi konsolidatsiyalashgan byudjet, davlat maqsadli jamg'armalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar mahalliy byudjetlaridan iborat ko'p

qatlamli arxitekturada faoliyat yuritadi. 2026-yilga mo'ljallangan davlat byudjeti parametrlariga ko'ra, konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 515,4 trillion so'mga, xarajatlari 567,0 trillion so'mga belgilangan, fiskal kamomad esa YalMning 3,0 foiz darajasida saqlanishi rejalashtirildi [25]. Mahalliy byudjet daromadlari 76,0 trillion so'mni, xarajatlari 95,6 trillion so'mni tashkil etadi va vertikal fiskal tafovut 19,6 trillion so'mga teng [19].

2026-yildan boshlab amal qiluvchi yangilanmalardan biri qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarining hududiy taqsimoti bo'ldi. Qonunchilik Toshkent shahriga 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga esa 20 foiz ulush ajratdi, Toshkent shahri va Toshkent viloyati uchun yakuniy soliq va foyda solig'i bo'yicha ulushlar mos ravishda 6 foiz va 33 foizgacha qayta hisoblandi [25]. Ushbu mexanizm hududiy byudjetlar ixtiyorida qo'shimcha 4,3 trillion so'mlik resurs hosil bo'lishini ta'minladi va bu mablag'larning kamida 50 foizi tuman va shahar byudjetlariga yo'naltiriladi [19].

Andijon viloyati misolida hududlar ichidagi investitsion notekislikni baholash hududiy konvergensiya muammosining konkret manzarasini taqdim etadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'yicha tumanlar kesimida 2024-yil ko'rsatkichlari sezilarli oraliqda joylashdi. Bu farqlar fiskal vositalarning maqsadli yo'naltirilishi zarurligini aniq dalillar bilan ko'rsatadi.

1-jadval.


Andijon viloyati hududlari kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi, ming so'm [18]

Hudud	2010-yil	2018-yil	2022-yil	2024-yil	2024/2010, marta
Andijon viloyati (jami)	282,3	1 550,3	4 361,1	8 363,6	29,6
Andijon shahri	776,4	3 504,4	6 512,5	7 069,4	9,1
Xonobod shahri	242,0	1 591,3	6 985,5	16 884,2	69,8
Buloqboshi tumani	110,4	712,6	11 351,3	31 599,5	286,2
Xo'jaobod tumani	131,9	2 020,9	12 458,4	8 836,7	67,0
Andijon tumani	139,6	1 154,6	3 048,6	12 982,4	93,0
Bo'ston tumani	157,9	2 346,6	3 043,6	11 252,0	71,3
Ulug'nor tumani	127,7	2 494,1	3 727,3	12 124,8	94,9
Marhamat tumani	83,6	873,1	2 598,9	7 376,8	88,2
Paxtaobod tumani	103,3	854,9	2 398,3	4 818,7	46,6
Shahrixon tumani	101,0	726,5	2 062,5	2 686,2	26,6
Izboskan tumani	276,1	1 350,0	1 266,1	3 265,0	11,8

1-jadval ma'lumotlari Andijon viloyati ichidagi investitsion oqimlarning kuchli geografik konsentratsiyasini ko'rsatadi. 2024-yil bo'yicha Buloqboshi tumanida aholi jon boshiga investitsiya hajmi 31 599,5 ming so'mga, Izboskan tumanida esa 3 265,0 ming so'mga teng bo'ldi. Bu farq 9,7 martani tashkil etadi [18]. Bunday tafovut o'sib borishi mintaqaviy iqtisodiy konvergensiya nuqtai nazaridan jiddiy e'tiborni talab qiladi va fiskal vositalarning differensiyalashgan qo'llanilishi zaruratini asoslaydi.

Investitsion notekislikni hosil qiluvchi omillar tarkibi xilma-xil ekanligi tahlilda yaqqol namoyon bo'ldi. Birinchidan, ayrim tumanlar erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar joylashgan markazlarga aylantirilgan, bu esa katta hajmli xususiy va

davlat investitsiyalarining markazlashishiga olib keldi [24]. Ikkinchidan, ba'zi tumanlarda yirik infratuzilma va sanoat loyihalarining bir martalik amalga oshirilishi yillik ko'rsatkichlarda keskin tebranishlarni keltirib chiqardi. Uchinchidan, mahalliy hokimiyatlarning fiskal salohiyati va boshqaruv potentsiali hududlar bo'yicha bir tekisda taqsimlangan emas.



1-rasm. Hududiy tafovutlarni kamaytirishda fiskal siyosat vositalarining konseptual modeli¹

1-rasmda ifodalangan konseptual model fiskal siyosat vositalarining hududiy konvergensiya ta'sir ko'rsatish ko'p bosqichli arxitekturasini namoyon etadi. Strategik daraja O'zbekiston-2030 strategiyasi va o'rta muddatli fiskal strategiya doirasida belgilanadigan makro mo'ljallarni o'z ichiga oladi. O'rta darajadagi instrumentariy uch asosiy yo'nalishni - soliq daromadlarini taqsimlash, tenglashtiruvchi transferlar va investitsion rag'batlarni - birlashtirib, ularning hududiy iqtisodiyotga uzatuvchi kanallarini hosil qiladi.

2026-yilgi byudjet islohotlari paketi konseptual modelning birinchi yo'nalishini sezilarli darajada kuchaytirdi. QQS daromadlarining 20 foizini hududiy byudjetlarda saqlash mahalliy fiskal salohiyatni o'rta muddatda mustahkamlash uchun istiqbolli

¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi [13], OECD (2021) [6] va IMF (2024) [8] hujjatlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

asos yaratdi [19]. PQ-387-son Qaror esa qattiq byudjet cheklovlari va byudjet intizomini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni nazarda tutdi [16]. Bu yondashuv OECD tajribasida tasvirlangan «rag'bat-mos formulalar» konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi va mahalliy daromad to'plash sa'y-harakatlarini cheklamasdan, balki rag'batlantirib boradi [5].

Tenglashtiruvchi transferlar mexanizmining samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajriba ko'rsatib berishicha, transferlar formulasiga aholi soni va o'rtacha xarajat tarkibidan tashqari demografik bosim, atrof-muhit holati va inson kapitali rivojlanishi ko'rsatkichlarini ham qo'shish maqsadga muvofiqdir [4]. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 142-moddasi mahalliy byudjetlarga qo'llaniladigan cheklovlarni belgilab beradi va bu cheklovlar fiskal intizomning kafolati sifatida xizmat qiladi [13].

Investitsion rag'batlar yo'nalishi davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) shartnomalarini yillik chegaralash mexanizmi bilan tartibga solinmoqda. IMF tahlillarida ta'kidlanganidek, DXSh portfelining tez kengayishi fiskal risklarning to'planishiga olib kelishi mumkin va shu sababli yillik investitsiya qiymatining qonuniy chegarasini joriy etish o'rta muddatli barqarorlikni mustahkamlaydi [8]. 2026-yilgi byudjet qonuniga ko'ra, davlat majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi yangi DXSh loyihalarining qiymat chegarasi 6,5 milliard AQSh dollarini tashkil etadi [25]. Ushbu chegara hududlarda yirik infratuzilma loyihalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlaydi va ortiqcha qarz yukining oldini oladi.

Jahon banki (World Bank) tomonidan 2024-yilda ma'qullangan 800 million AQSh dollar miqdoridagi imtiyozli kreditlar paketi davlat moliyasini boshqarish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va atrof-muhitga doir investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha tarkibiy islohotlarning amalga oshishi uchun resurs bazasini kengaytirdi [11]. Tahlil ko'rsatdiki, fiskal vositalarning uch yo'nalishi (taqsimlovchi, tenglashtiruvchi va rag'batlantiruvchi) o'zaro birlashtirilgan tartibda qo'llanilganda, ularning hududiy konvergentsiyaga ta'siri sezilarli ravishda kuchayadi. Bu o'zaro mutanosiblik ikkinchi avlod fiskal federalizm konsepsiyasining markaziy postulatini tasdiqlaydi va O'zbekiston tajribasining xalqaro nazariy meros bilan uyg'unligini aks ettiradi [2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirishda fiskal siyosat vositalarining tizimli ahamiyatini asosli dalillar bilan tasdiqladi. Birinchidan, Tibu-Oates fiskal federalizm konsepsiyasi va uning ikkinchi avlod modifikatsiyasi mahalliy hokimiyatlarning rag'batlarini hisobga olgan holda, hududiy darajadagi davlat xizmatlarini taqdim etishning samarali arxitekturasini qurish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Ikkinchidan, OECD mamlakatlari tajribasi tenglashtiruvchi transferlarning maqsadli formulasi va makroiqtisodiy konsolidatsiya bosqichidagi tarkibiy moslashishi mahalliy fiskal intizomni saqlagan holda mintaqaviy adolatni ta'minlash imkonini beradi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2026-yilga mo'ljallangan byudjet islohotlari paketi QQSning 20 foizini hududiy byudjetlarga yo'naltirish,

tenglashtiruvchi transferlar formulasini takomillashtirish va DXSh loyihalarining yillik investitsiya chegarasini joriy etish kabi uchta muhim mexanizmni o‘zaro bog‘lab, fiskal vositalarning kompleks ta‘sirini kuchaytirdi [25]. To‘rtinchidan, Andijon viloyati misolida o‘tkazilgan miqdoriy tahlil hududlar ichidagi investitsion notekislikning saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi va fiskal vositalarning differensiyalashgan qo‘llanilishi zaruratini asosladi [18].

Olib borilgan tahlil asosida hududiy iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga yo‘naltirilgan fiskal siyosat vositalarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif. Tenglashtiruvchi transferlar formulasini ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar tizimi asosida modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq. Formulaga aholi soni va xarajat tarkibidan tashqari demografik bosim koeffitsiyenti, infratuzilma yetishmovchiligi indeksi va inson kapitali rivojlanish darajasi kabi qo‘shimcha o‘lchamlarni kiritish hududlarning haqiqiy ehtiyojlarini aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Ikkinchi taklif. Mahalliy soliq bazasining kengaytirilishi va uning tushumlarini hududiy byudjetlarda barqaror saqlash mexanizmlarini rivojlantirish lozim. QQS daromadlarining 20 foizini hududiy byudjetlarda saqlash uchun belgilangan tartib mahalliy daromadning prognozlanuvchanlik darajasini oshiradi va ko‘p yillik moliyaviy rejalashtirishni ta‘minlaydi [19].

Uchinchi taklif. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan hududiy infratuzilma rivojlantirishda izchil va shaffof tarzda foydalanish o‘rta muddatli fiskal barqarorlikni saqlagan holda investitsion oqimlarni rag‘batlantirishni ta‘minlaydi. DXSh loyihalarining yillik chegarasini hududiy darajadagi parametrlar bilan to‘ldirib, ularning regional taqsimoti monitoringini joriy etish samaraliroq natijaga olib keladi.

To‘rtinchi taklif. Hududiy byudjetlarning xarajatlari samaradorligini baholash uchun zamonaviy raqamli platformalar (jumladan, Open Budget portali) imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim. Bu yondashuv fiskal shaffoflikni mustahkamlaydi va mahalliy hokimiyatlarning natijaviy javobgarligini oshiradi [24]. Beshinchi taklif. Andijon viloyati va boshqa hududlar misolida fiskal vositalarning samaradorligi bo‘yicha har yillik monitoring tahlilini institutsionallashtirish, mintaqaviy konvergensiyaning empirik kuzatuvini chuqurlashtirish va siyosiy qarorlarning empirik asoslangan bo‘lishiga xizmat qiladi [22].

Hududiy tafovutlarni qisqartirish maqsadiga erishishda fiskal siyosat vositalari avtonom emas, balki tarkibiy islohotlar, monetar siyosat va mintaqaviy boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashtirilgan tartibda samarali natija beradi. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi islohot bosqichi xalqaro nazariy mero va xalqaro tajribaning yutuqlarini o‘zlashtirish, milliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘ziga xosligi bilan moslashtirish hamda uzoq muddatli mintaqaviy konvergensiyaning ta‘minlashga ko‘maklashish uchun keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tiebout C.M. A Pure Theory of Local Expenditures // Journal of Political Economy. - 1956. - Vol. 64, No. 5. - P. 416-424. URL: <https://www.jstor.org/stable/1826343>
2. Oates W.E. Toward A Second-Generation Theory of Fiscal Federalism // International Tax and Public Finance. - 2005. - Vol. 12. - P. 349-373. URL: https://extranet.parisschoolofeconomics.eu/docs/koenig-pamina/2ndgenerationfiscalfederalism_oates_2005.pdf
3. Boadway R., Shah A. Intergovernmental Fiscal Transfers: Principles and Practice. - Washington, DC: World Bank, 2007. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/831241468161662497/>
4. Blöchliger H. Fiscal Equalisation - A Cross-Country Perspective. - OECD Working Papers, 2014. URL: <https://www.polsoz.fu-berlin.de/polwiss/forschung/systeme/polsystem/Tagung-zur-Reform/ppt-und-paper/Bloechliger.pdf>
5. Dougherty S., Montes Nebreda A., Urrutia N. Intergovernmental fiscal transfers and fiscal equalisation in a time of consolidation // OECD Working Papers on Fiscal Federalism No. 51. - Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/06/intergovernmental-fiscal-transfers-and-fiscal-equalisation-in-a-time-of-consolidation_a6b7aadb/4853a4d0-en.pdf
6. Dougherty S., de Biase P. Evaluating Fiscal Equalisation: Finding the Right Balance // OECD Working Papers on Fiscal Federalism No. 36. - Paris: OECD Publishing, 2021. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/04/evaluating-fiscal-equalisation_4a02edbe/253da2b8-en.pdf
7. European Central Bank. Fiscal transfers and economic convergence // ECB Occasional Paper No. 252. - Frankfurt: ECB, 2020. URL: <https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpops/ecb.op252~e307b7777c.en.pdf>
8. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation - Press Release; and Staff Report // IMF Country Report No. 24/210. - Washington, DC: IMF, 2024. URL: <https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2024/english/1uzbea2024001-print-pdf.pdf>
9. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Selected Issues // IMF Country Report No. 24/211. - Washington, DC: IMF, 2024. URL: <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-Selected-Issues-551715>
10. World Bank. The World Bank in Uzbekistan: Country Overview. - Washington, DC: World Bank Group, 2026. URL: <https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan>
11. World Bank. Uzbekistan's Reforms for Private Sector Growth, Social Protection, and Climate Action to Benefit from World Bank Support. - Washington, DC: World Bank, 2024. URL: <https://www.worldbank.org/en/news/press->

[release/2024/10/04/uzbekistan-s-reforms-for-private-sector-growth-social-protection-and-climate-action-to-benefit-from-world-bank-support](#)

12. World Bank, IMF. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment. - Washington, DC: World Bank Group, 2025. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099072925165040123/pdf/BOSIB-098cfdae-26d9-446a-9607-c30f373e1f1b.pdf>

13. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi: 2013-yil 26-dekabr ZRU-360-son. URL: <https://lex.uz/docs/5535058>

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni URL: <https://lex.uz/docs/-6600412>

15. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1105-son 26-dekabr 2025-yil “2026 yilga mo‘ljallangan Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni URL: <https://lex.uz/>

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr PQ-387-son “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va byudjet intizomini mustahkamlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7952193>

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabr PQ-455-son “Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi qonunning ijrosini ta‘minlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori URL: <https://lex.uz/en/docs/7292002>

18. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qomitasi. Andijon viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bo‘yicha 2010-2025 yillar ma‘lumotlari. - Toshkent: Stat.uz, 2026. URL: <https://stat.uz/uz/>

19. Senate of Uzbekistan approves law on 2026 state budget // Gazeta.uz. - 18.12.2025. URL: <https://www.gazeta.uz/en/2025/12/18/budget-2026-uzbekistan/>

20. Sharipov A. Tax Revenue Redistribution, Hard Budget Constraints and Local Fiscal Stability in Uzbekistan // Innovation Science and Technology. - 2026. - Vol. 2, No. 3. URL: <https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/view/697>

21. Vu T.V., Le T.H. Fiscal decentralization, economic growth, and human development: Empirical evidence // Cogent Economics & Finance. - 2022. - Vol. 10, No. 1. URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23322039.2022.2109279>

22. United Nations Development Programme. Independent Country Programme Evaluation: Uzbekistan. - New York: UNDP, 2025. URL: <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-07/icpe-uzbekistan-main-report.pdf>

23. Mirziyoyev Sh. Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan. - Tashkent, 26.12.2025. URL: <https://president.uz/en/lists/view/8834>

24. U.S. Department of State. 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. - Washington, DC: U.S. Department of State, 2024. URL: <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/>

25. Mirziyoyev Signs Uzbekistan's 2026 State Budget // Caspian Post. -
26.12.2025. URL: <https://caspianpost.com/uzbekistan/mirziyoyev-signs-uzbekistan-s-2026-state-budget>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**